

**Amudaryo tumani №4, №5, №40, №43 - sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida
outsorsing usulida so'g'lom ovqatlantirishni tashkil etish to'g'risida
1-sonli ShARTNOMA**

2022 yil "02" fevral

Amudaryo tumani

Keyingi o'rinlarda outsorser deb ataladigan «Amudaryotutinuv» Ma'suliyati cheklangan jamiyati nomidan Ustav (ishonchnoma, buyruk va x.k.) asosida faoliyat yurituvchi korxonaga rahbari Baymurotov Kuvonchboy Toliboevich bir tomondan, matnda keyingi o'rinlarda buyurtmachi deb Amudaryo Maktabgacha ta'lim bulimi deb ataladigan Ustav asosida faoliyat yurituvchi maktabgacha ta'lim bulimii nomidan mudir Sadikova Saida Sidamatovna ikkinchi tomondan (keyingi o'rinlarda -tomonlar) quyidagilar haqida ushbu shartnomani tuzdilar.

I. Shartnomaning predmeti

1.1. Amudaryo tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi №4, №5, №40, №43-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ro'yxatda turuvchi tarbiyalanuvchilarni amaldagi sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga muvofiq bir kunda 3 (uch) mahal (nonushta, tushlik, ikkinchi tushlik), haftada 5 (besh) kun ovqatlantirish mazkur shartnomaning predmeti hisoblanadi.

1.2. Tarbiyalanuvchilarni bir kunda 3 (uch) mahal ovqatlantirish bo'yicha taomnoma №4, №5, №40, №43-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan kelishgan holda outsorser tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi. Shartnoma qiymati №4, №5, №40, №43-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida shartnoma tuzilgan kunda ro'yxatda turgan tarbiyalanuvchilar soni va mahsulotlar narxlariga muvofiq 262286388 (Ikki yuz oltmish ikki million ikki yuz sakson olti ming uch yuz sakson sakkiz) so'mni tashkil etadi.

Tarbiyalanuvchilar soni	SanQvaM bo'yicha bir nafar bolani bir kunlik ovqatlantirish xarajati*	Shartnoma amal kilish muddati davomida ish kunlari soni	Jami xarajat	Ustama (QQS bilan)		QQS	Shartnomaning umumiy qiymati
				15%	Summa		
1	2	1	$4=1 \times 2 \times 3 \times 4$	5	$6=4 \times 5$	7	$8=4+6+7$
252	13000	59	193284000	18	228075120	15	262286388

* Sanitariya qoidalari va me'yorlari bo'yicha bir nafar tarbiyalanuvchini bir kunlik ovqatlantirish xarajati hisob-kitobi 1-ilovada keltiriladi. Ushbu shartnoma tuzilgan kunda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ro'yxatda turuvchi tarbiyalanuvchilar soni 252 nafar, bir nafar tarbiyalanuvchini bir kunlik ovqatlantirish xarajati 13000 so'mni tashkil etadi.

Sanitariya qoidalari va me'yorlari bo'yicha bir nafar tarbiyalanuvchini bir kunlik ovqatlantirish xarajati hisob-kitobi 1-ilovada, oyma-oy to'lov jadvali 2-ilovada keltiriladi.

1.3. Amaldagi sanitariya qoidalari va me'yorlari asosida ovqat tayyorlash uchun ishlatiladigan mahsulotlarning tasdiqlangan narxlariga o'zgarishi hamda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilar sonining o'zgarishi hisobiga bir nafar tarbiyalanuvchini bir kunlik ovqatlantirish xarajati shartnomada keltirilganiga nisbatan 10% va undan yuqori ko'rsatkichga farq qilgan hollarda shartnomaga tomonlarning kelishuviga asosan o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

II. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

2.1. Outsorserning huquqlari:

foydalaniladigan kommunal xizmatlar qiymati belgilangan limit va davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga ajratilgan byudjet mablag'lari doirasida qoplanishini talab qilish;

ijara shartnomasi doirasida outsorserga vaqtincha foydalanishga beriladigan oshxonaning ishlab chiqarish xonalari, asbob-uskunalari, idish-tovoqlari va mebelidan foydalanganlik uchun tulovni nol stavka bo'yicha olish;

ko'rsatgan xizmatlar uchun to'lovni shartnomada belgilangan miqdor va muddatda talab qilish.

Autsorser qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

2.2. Outsorserning majburiyatlari:

tarbiyalanuvchilarni so'g'lom ovqatlantirish xizmatini tashkilot oshxonasining uzida sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga muvofiq to'lik va sifatli tashkil etish;

taomnomalarni 10 kunlik namunaviy taomnomalar asosida hududiy davlat sanitariya agentligiga bir nusxa taqdim qilgan holda ovqatlantirishni tashkil etish;

taomlarni ovqat tayyorlash texnologiyasiga to'liq amal kilgan holda tayyorlash;

taomlar tayyorlash texnologiyasi bo'yicha mutaxassislar (injener-texnolog, dietolog, oshpazlar) bilan ga'minlash;

taomnomalar, tayyor taomlarning vazni, narxi, tarkibidagi mahsulotlar miqdorlari, texnologii kartalarning to'g'ri va to'liq yuritilishini ta'minlash.

tanlov jarayonida sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga mos sharoitlarni yaratish bo'yicha loyixani 3 ilovada belgilangan muddatlarda bajarish;

Autsorserga qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

2.3. Buyurtmachining huquqlari:

outsorsing usulida ovqatlantirishni amalga oshirish uchun qo'yilgan talablar bajarilishini o'rganish;

tayyor taomlar sifatining taomnomaga muvofiqligini tekshirish;

tayyor taomlarning miqdori, mazasi, tarkibidagi mahsulotlarning sifati bo'yicha kamchiliklar aniqlangan holatda vakolatli organlarga bildirgi kiritish;

xarid qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari va tayyorlanayotgan taomlar, ularda foydalaniladigan texnologik sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga mosligini, oshxonalar xodimlarining sanitariya-gigiena talablari va epidemiyaga qarshi tadbirlar bajarilishiga rioya etilishini tasdiqlangan rejaga asosan nazorat qilish.

Buyurtmachi qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

2.4. Buyurtmachining majburiyatlari:

foydalaniladigan kommunal xizmatlar xarajatlarini belgilangan normalar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotining xarajatlar smetasida mavjud byudjet mablag'lari va ota-onalar to'lovidan tushumlar hisobidan koplash;

ijara shartnomasi doirasida outsorserga vaqtincha foydalanishga beriladigan oshxonaning ishlab chiqarish xonalari, asbob-uskunalari, idish-tovoqlari va mebellardan foydalanish uchun nol stavkada topshirish;

ko'rsatilgan xizmatlar uchun shartnomada belgilangan miqdor va muddatda to'lovni amalga oshirish. tanlov jarayonida sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga mos sharoitlarni yaratish bo'yicha investitsion loyihani belgilangan muddatlarda bajarish;

Buyurtmachiga qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

III. Ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish

3.1. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti har kuni ertalab soat 9:00 ga qadar shu kuni tashkilotga kelgan, ovqatlantirilishi lozim bo'lgan tarbiyalanuvchilar soni bo'yicha belgilangan shaklga muvofiq autsorserga buyurtma beradi.

3.2. Outsorser davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan taqdim etilgan tarbiyalanuvchilarning haqiqiy sonidan kelib chiqqan holda taomnoma tuzadi hamda ushbu taomnoma asosida ovqatlantirishni amalga oshiradi.

3.3. Outsorser har 10 (un) kunda buyurtmachiga kunlik taomnomalarni ilova qilgan holda hisob-faktura va ko'rsatilgan xizmatlar dalolatnomasini taqdim etadi.

3.4. Buyurtmachi har oyning 15 sanasiga qadar joriy oyning rejaviy ish hajmiga (shartnomaga ilova qilingan to'lov jadvaliga) qarab 15 foiz miqdorda oldindan to'lovlarni amalga oshiradi;

outsorser tomonidan taqdim etilgan hisob-faktura va ko'rsatilgan xizmatlar dalolatnomasi asosida ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha mablag'larni joriy oyning 25 sanasiga qadar outsorserga o'tkazib beradi (joriy oyning qolgan kunlari uchun to'lovlar keyingi oy uchun to'lanadigan mablag'larga qo'shib o'tkaziladi).

IV. Shartnoma bo'yicha javobgarlik

4.1. Outsorser quyidagilarga javobgardir:

ovqatlarni faqat davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti oshxonasining o'zida tayyorlashga (istisno tariqasida Komissiyaning qarori bilan markazlashgan holda tayyorlash va yetkazib berish);

ovqat tayyorlashda tegishli sertifikat va sifatni belgilovchi boshqa hujjatlarga ega bulgan mahsulotlardan foydalanishga;

tayyorlangan ovqatlarning amaldagi sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga muvofiqligiga;

tayyorlangan taomlarni texnologiya qoidalari rioya kilgan holda belgilangan taomlarni tayyor holdagi vazniga mutanosibligiga;

tayyorlangan ovqatlarning sifati buzilmasdan bolalarga berilishiga, bolalarga achigan, aynigan va boshqa ko'rinishda o'z sifatini yo'qotgan ovqatlarni bermaslikka;

taomnomada mahsulotlarning haqiqiy narxlarini hamda haqiqatda ovqatlangan bolalar sonini to'g'ri ko'rsatilishiga;

kunlik taomnomalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbariga belgilangan vaqtda yetkazilishiga;

o'ziga biriktirilgan va tegishli shartnomalar asosida vaqtincha foydalanishga berilgan buyurtmachining mulkini but saqlanishi va tejamkorlik bilan foydalanilishiga;

ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha tasdiqlovchi hujjatlarni belgilangan shakllarga muvofiq hamda belgilangan muddatlarda buyurtmachiga taqdim etishga.

Buyurtmachi quyidagilarga javobgardir:

ijara shartnomasi doirasida outsorserga vaqtincha foydalanishga beriladigan oshxonaning ishlab chiqarish xonalari, asbob-uskunalari, idish-tovoqlari va mebellardan foydalanish uchun nol stavkada topshirish;

ko'rsatilgan xizmatlar uchun mazkur shartnomada belgilangan miqdor va muddatlarda to'lovlarni amalga oshirish;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga haqiqatda kelgan tarbiyalanuvchilar soni to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan shakl va muddatlarda outsorserga topshirilishini ta'minlash.

4.2. Outsorser tomonidan ovqatlantirish xizmatlarini belgilangan vaqtlarda amalga oshirmasa yoki Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida to'lovlar amalga oshirilmasa o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov so'mmasining 0.4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov so'mmasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya tulaydi.

V. Fors-major holatlar

5.1. Fors-major holatlarda, basharti, majburiyatni ijro etmaslik shartnoma tuzilganidan keyin ro'y bergan bartaraf etib bo'lmas kuch ta'siridagi vaziyat oqibati bo'lsa, ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaslik bo'yicha tomonlar javobgar bo'lmaydi.

VI. Boshqa shartlar

6.1. Shartnoma yuzasidan kelishmovchiliklar talabnoma yuborish va muzokaralar o'tkazish yo'li bilan bartaraf qilinadi. Agarda tomonlar kelishuvga erishmasalar nizolar iktisodiy sud yoki muvaqqat hakamlik sudi orkali hal etiladi.

6.2. Shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

6.3. Bir nafar tarbiyalanuvchini bir kunlik ovqatlantirish amaldagi Sanitariya qoidalari va me'yorlari bo'yicha amalga oshiriladi.

VII. Shartnomaning amal kilishi

7.1. Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrga qadar amalda buladi.

VIII. Tomonlarning rekvizitlari

«Sotuvchi»
“Amudaryotutinuv” MChJ

(sotuvchining nomi)

Manzil: Amudaryo tumani
Mang'it shaxri
Tel./faks +99893-920-07-07
R\`s 20208000500417024001
Bank: Agrobank ATB Amudaryo filiali
MFO: 00619 INN 201383680



Boshliq
Baymurotov Kuvonchboy Tolibaevich

«Xaridor»
Amudaryo tumani maktabgacha ta'lim
bo'limi

(xaridorning nomi)

Manzil: Amudaryo tumani Mang'it shahri
Barkamol avlod ko'chasi r/u
Tel./fax +998 97 500-37-27
L\`s* 100022860352047091100251040
INN 207267037
O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
G'aznachiligi
X\`r 23402000300100001010
INN: 201122919 MFO: 00014
Bank: Markaz-bank Toshkent shahri

Rahbar
Sadikova Saida Sidamatovna



**Sanitariya qoidalari va me'yorlari bo'yicha bir nafar tarbiyalanuvchini bir kunlik ovqatlantirish xarajati
HISOB-KITABI**

4-7 yosh

T/r	Mahsulotlar nomi	Narxi	Miqdori	So'mmasi**
		(so'm)	(gramm)*	(so'm)
1.	Non 1-navli (vitamin va minerallar bilan boyitilgan)	1400	100,0	280,0
2.	Bugdoy uni 1-navli	2750	30,0	82,5
3.	Mevali kisel tayyorlash uchun kraxmal	23000	3,0	69,0
4.	Yermalar, makaron mahsulotlari	8200	45	369,0
	jumladan, mosh	12000	3	36,0
5.	Shakar	8000	25,0	200,0
6.	Kandolat mahsulotlari (murabbo, djem, gematogen va	12000	10,0	120,0
7.	Saryog	48000	20,0	960,0
8.	Usimlik yogi	17000	8,0	136,0
9.	Tabiiy sut	5000	200,0	1000,0
10.	Kefir, yogurt	7000	100,0	700,0
11.	Smetana	17000	5,0	85,0
12.	Tvorog	17000	20,0	340,0
13.	Pishlok	28000	10,0	280,0
14.	Gusht (mol gushti, kuy gushti, parranda gushti, kuyon	55000	80	4400,0
15.	Balik (tozalangan va muzlatilgan)	30000	20,0	600,0
16.	Tux um (dona)	1000	0,5	500,0
17.	Kartoshka	4800	120,0	576,0
18.	Sabzavotlar	3076	180,0	553,7
	jumladan, tomat pasta	18000	3	54,0
19.	Mevalar, meva sharbatlari, vitaminli ichimliklar	8500	150,0	1275,0
20.	KURUK mevalar	22000	10,0	220,0
21.	Choy	29000	0,3	8,7
22.	Kakao	50000	2,0	100,0
23.	Iodlangan tuz	1000	5,0	5,0
24.	Achitkilar (drojlar)	50000	1,0	50,0
	Jami	X		13000

O'zbekiston Respublikasidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etishga qo'yiladigan gigiena talablari (SanPiN) bo'yicha bir nafar bola uchun bir kunlik mahsulotlar me'yori yoziladi.

Tuman va shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari narxlaridan oshmagan holda taklif etilayotgan oziq-ovqat narxlari yoziladi.

Summasi - mahsulot miqdorini mahsulot narxiga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Аутсорсинг усулида соғлом овқатлантиришни ташкил этиш буйича шартнома буйича туловларни амалга ошириш графиги

Йил ва ой	Тулов миқдори (сум)
2022 йил январь	-
2022 йил февраль	174 857 592,0
2022 йил март	87 428 796,0
2022 йил апрель	-
2022 йил май	-
2022 йил июнь	-
2022 йил июль	-
2022 йил август	-
2022 йил сентябрь	-
2022 йил октябрь	-
2022 йил ноябрь	-
2022 йил декабрь	-
Жами	262 286 388,0

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN -HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyihaning nomi: tuman MTM tizimidagi №4, №5, №40, №43 - sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida outsorsing usulida so'g'lom ovqatlantirishni tashkil etish to'g'risida 1-sonli shartnomasi to'g'risida.

3.Loyihaning mazmuni: Amudaryo Maktabgacha ta'lim bulimi deb ataladigan Ustav asosida faoliyat yurituvchi maktabgacha ta'lim bulimii nomidan mudir Sadikova Saida Sidamatovna bir tomondan hamda Outsorser deb ataladigan «Amudaryotutinuv» Ma'suliyati cheklangan jamiyati nomidan Ustav (ishonchnoma, buyruk va x.k.) asosida faoliyat yurituvchi korxonra rahbari Baymurotov Kuvonchboy Toliboevich ikkinch tomondan Amudaryo tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi №4, №5, №40, №43-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ro'yxatda turuvchi tarbiyalanuvchilarni amaldagi sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga muvofiq bir kunda 3 (uch) mahal (nonushta, tushlik, ikkinchi tushlik), haftada 5 (besh) kun ovqatlantirish mazkur shartnomaning predmeti

Tarbiyalanuv - chilarsoni	SanQvaM bo'yicha bir nafar bolani bir kunlik ovqatlantirish xarajati*	Shartnoma amal kilish muddati davomida ish kunlari soni	Jami xarajat	Ustama (QQS bilan)		QQS	Shartnom aning umumiy qiymati
				15%	Summa		
1	2	1	$4=1 \times 2 \times 3 \times 4$	5	$6=4 \times 5$	7	$8=4+6+7$
252	13000	59	193284000	18	228075120	15	262286388

to'g'risida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Amudaryo tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 2022-yil 31-yanvar kuni ishlab chiqilgan va **dasturga 2022-yil 31-yanvarda** kiritilgan.

Mazkur loyiha O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustidagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to'g'risida"gi №670-I-son Qonunining 10-moddasiga asosan tuzilgan. Shartnoma shartlari va shartnomada nazarda tutilgan javobgarlik asoslari hamda nizolarni hal qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to'g'risida"gi №670-I-son Qonunining 21-moddasiga asosan, Qonunchilikka muvofiqqligini aniqlash ekspertizaning asosini tashkil qildi.

Huquqiy ekspertiza natijasida quyidagilar aniqlandi:

1. Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holatda tuzilgan. Shartnoma shartlari shunday munosabatlarni tartibga soluvchi O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 30-iyun, 407-son qarori talablari me'yoriy hujjatlarga javob beradi. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismi 38-bob Haq evaziga xizmat ko'rsatish, 703,704,705,706,707,708-moddalari to'g'risidagi qoidalari bilan tartibga solinadi.

2. Shartnoma taraflarining javobgarligini belgilovchi me'yorlari va nizolarni hal qilish tartibi bilan bog'liq shartlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik qonun hujjatlari me'yorlariga, shuningdek amaldagi boshqa qonun hujjatlari bilan belgilangan talablarga to'liq mos keladi.

3. Mazkur xulosani tuzish vaqtida tomonlarning mazkur Shartnoma talablarini bajarishga ta'sir ko'rsatuvchi hech qanday omillar, davlat boshqaruv organining qonuniy yoki boshqa ko'rsatmalari mavjud emas.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

XULOSA:

Amudaryo tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 2022-yil 31-yanvarda ishlab chiqilgan tuman MTM tizimidagi №4, №5, №40, №43 - sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida autsorsing usulida so'g'lom ovqatlantirishni tashkil etish to'g'risida 1-sonli shartnomasi yuqoridagi keltirilgan asoslarga ko'ra qabul qilinishi **muvofigligi haqida.**

Amudaryo tumani Yuridik
Xizmat ko'rsatish markazi bosh
yuriskonsulti: 1-darajali yurist:



Sh.Sh.Vaisniyazov